

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 85 419,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 8,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,6 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	71 869,1	85 419,0	108,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	70 770,9	84 052,2	108,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1 098,2	1 366,8	110,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	70 770,9	84 052,2	108,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20 726,6	23 483,2	104,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	17 618,8	20 631,5	109,6
sanoat	12 060,8	14 098,6	109,1
qurilish	5 558,0	6 532,9	110,6
xizmatlar	32 425,5	39 937,5	109,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13 801,0	17 366,9	114,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 686,4	4 837,6	111,7
boshqa xizmat tarmoqlari	14 938,1	17 733,0	105,3

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 27 020,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,0 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,5	98,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1,5	1,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29,3	27,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,9	24,6
sanoat	17,0	16,8
qurilish	7,9	7,8
xizmatlar	45,8	47,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19,5	20,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,8
boshqa xizmat tarmoqlari	21,1	21,0



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 27,9 % ni, sanoat tarmog'i 16,8 % ni, qurilish 7,8 % ni va xizmatlar sohasi 47,5 % ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



29,3 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

1,5 %

17,0 %

Sanoat


7,9 %

Qurilish

45,8 %

Xizmatlar

2025- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

27,9 %

Sanoat

16,8 %

Qurilish

7,8 %

Xizmatlar

47,5 %

1,6 %


● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,5 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 3,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,9 %), sanoatda – 109,1 % (16,8 %), qurilishda – 110,6 % (7,8 %), xizmatlar sohasida – 109,8 % ni (47,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,3 % (20,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,7 % (5,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,3 % dan (21,0 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



7,3 %

YAHM

8,2 %



4,6 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,3 %



8,1 %

Sanoat

9,1 %



7,9 %

Qurilish

10,6 %




8,7 %

Xizmatlar

9,8 %

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 108,7 % va xizmatlar sohasida – 112,1 % qayd etildi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 61 824,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – 52 310,9 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 73,6 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida – 73,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

52 310,9

73,9 %

2025- yil

61 824,8

73,6 %

